

“Open bank” aksiyadorlik jamiyati
Kuzatuv kengashining

2025-yil 21 - oktabr dagi
21-00/1 -sonli yig'ilish bayonnomasiga
26 -ilova

**«OPEN BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATINING
NARX SIYOSATI**

Toshkent – 2025-yil.

Mazkur "Open bank" aksiyadorlik jamiyatining narx siyosati (keyingi o'rinlarda Siyosat deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni va amaldagi boshqa qonunchilik hujjatlari, "Open bank" aksiyadorlik jamiyatining Ustavi hamda boshqa ichki qoidalarga muvofiq ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Siyosat "Open bank" aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlarda Bank deb yuritiladi)da Bank tomonidan taqdim etiladigan mahsulot va xizmatlar uchun narxlarni belgilashning umumiy qoidalarini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Bank tomonidan taqdim etiladigan mahsulot va xizmatlar uchun narxlarni belgilash Bank daromadliligining asosiy mezonini hisoblanadi.

3. Bank mijoz bilan munosabatlarni uzoq muddatga yo'naltirilganligini hisobga olib, narx belgilash jarayonini mijozlar ehtiyojini qondirish, bozorni rivojlantirish, shaffoflik va rentabellikdan kelib chiqqan holda amalga oshiradi.

4. Bankda narx belgilashdan asosiy maqsadi – bu mahsulot va xizmatlarni daromadli marja bilan narxlash, shu bilan birga mijozlar ehtiyojini qondirishni maqsad qilgan holda bozorning ushbu tendensiyalariga muvofiq bo'lishga e'tibor qaratish hisoblanadi.

2-bob. Maqsad va vazifalar

5. Ushbu Siyosatning maqsadi mahsulot va xizmatlar narxini belgilashda Bank strategiyasida belgilangan maqsadlar va biznes rejasi parametrlaridan kelib chiqib hal qiluvchi mezonlarni aniqlashdan iborat.

6. Bank mahsulot va xizmatlariga narx belgilashda quyidagilar maqsadlar inobatga olinadi:

mahsulot va xizmatlar bilan bog'liq xarajatlar;

mahsulot va xizmatlarni bozorda strategik joylashtirishda mijozlarni sotib olish va ushlab turishga qaratilganligi;

mijozlar ehtiyojini qondirishga erishishi;

amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan belgilangan me'yoriy talablarga muvofiqligi.

7. Bankda narx belgilash jarayonida quyidagi vazifalar belgilanadi:

foydani maksimallashtirish;

xarajatlarni qoplash;

tavakkalchiliklarni boshqarish;

raqobatbardoshligini ta'minlash;


me'yoriy muvofiqlik;

moslashuvchanlik;

strategik muvofiqlashtirish;

mijozlarni ushlab turish va jalb qilish;

mahsulot va xizmatlarning hayotiylik siklini boshqarish.



8. Bankda narxni shakllantirish jarayoni mahsulot va xizmatlarga samarali narx belgilashni ta'minlash uchun mo'ljallangan bo'ladi.

3-bob. Narxlarni belgilash mezonlari

9. Bankda narxi belgilash jarayonida e'tiborga olinadigan asosiy mezonlar quyidagilardan iborat bo'ladi:

mijozlar ehtiyojini qondirish. Narxni belgilashda mijozning mahsulot va xizmatga bo'lgan nuqtai nazarini inobatga olgan holda mijozning ma'lum bir narxga yoki ma'lum bir narx o'zgarishiga munosabati tahlil qilinadi. Shuningdek, mahsulot yoki xizmat turi, maqsadli bozor segmenti hisobga olinadi;

mahsulot va xizmat uchun qo'llaniladigan marja bir xil turdagi mahsulot yoki xizmatlar uchun raqobat narxlari hisobga olinadi;

narx belgilashda ushbu mahsulot va xizmatlar bilan bog'liq xarajatlar inobatga olinadi. Mahsulotlar va xizmatlar narxini loyihalashda barcha to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita xarajatlar aniqlanadi va hisoblanadi. Muayyan mahsulot va xizmat uchun narxni belgilashda eng muhim element xarajatlarga nisbatan qo'llaniladigan marja hisoblanadi;

narx belgilashda amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilangan tartibga solish talablariga muvofiq bo'ladi;

narxlar shaffofligi ta'minlanadi. Mijoz ma'lum bir mahsulot va xizmatni sotib olish to'g'risida qaror qabul qilishdan oldin Bank tomonidan to'liq va tushunarli ma'lumotlar taqdim etiladi.

4-bob. Narx belgilash va qaror qabul qilish vakolati

10. Bank mahsulot va xizmatlarining narxi quyidagi elementlardan iborat:

o'z va jalb qilingan mablag'lar qiymati;

tavakkalchilik qiymati;

operatsion xarajatlar;

biznes bo'yicha kutilayotgan foyda (rentabellik);

soliq va majburiy ajratmalar.

11. Bankda mahsulot va xizmatlar uchun narx belgilashda sof keltirilgan yoki diskontlangan pul oqimiga asoslangan qiymat (NPV) modeli qo'llaniladi.


12. Bankda mahsulot va xizmatlar uchun narx belgilash jarayonlarida minimal narxlash qiymatini ifodalovchi "umumiy eng kichik spread" qiymatida ifodalangan boshqaruv qiymatiga asoslanadi.

13. Bankda mahsulot va xizmatlar uchun minimal narxni belgilash Likvidlilikni boshqarish qo'mitasi va/yoki Bank Boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

14. Bankning barcha xodimlari va rahbarlari tomonidan ushbu Siyosatga rioya qilinishi majburiy hisoblanadi.

15. Bank xodimlari quyidagi holatlar yuz berganda korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ul hisoblangan qo'mita hamda tarkibiy tuzilmani xabardor



openbank	Ro'yxat raqami: <u>I-113</u>
	Sana: "№ <u>22</u> " <u>Oktyabr</u> 20 <u>28</u> yil

qilishi shart:

biron-bir shaxs korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga ko'ndirish maqsadida murojaat etganda;

Bankda korrupsiyaga oid qonunbuzilish holatlariga shubha tug'ilgan har qanday holatlarda.

Korrupsiyaga oid qonun buzilish holatlari mavjudligini bila turib xabar bermaslik, qonun buzilish holatlarini yashirganlik deb hisoblanadi va qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.


16. Bankning tegishli rahbar va xodimlari tomonidan mazkur Siyosat talablariga rioya qilinmagan taqdirda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

17. Ushbu Siyosatga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

18. Mazkur Siyosat bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

19. Ushbu Siyosatning alohida bandlari amaldagi qonunchilik hujjatlariga zid bo'lsa, ushbu bandlar o'z kuchini yo'qotadi va ushbu bandlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari normalariga amal qilinadi.

openbank	Ro'yxatdan o'tkazildi
	Ro'yxat raqami: <u>I-113</u>
	Sana: "№ 22" <u>oktabr</u> 20 <u>25</u> yil



07102026

YURIDIK XULOSA
(ichki qoidani huquqiy ekspertizadan o'tkazish to'g'risida)

Toshkent shahar

“ 04 ” 10 2025 yil

Ekspertiza o'tkazuvchi: “Open bank” aksiyadorlik jamiyatning (keyingi o'rinlarda “Bank” deb yuritiladi) Yuridik boshqarmasi.

Ekspertizadan o'tkazilgan me'yoriy hujjat nomi: “Open bank” aksiyadorlik jamiyatining narx siyosati (keyingi o'rinlarda “ichki qoida” deb yuritiladi).

Ekspertiza o'tkazishda foydalanilgan qonunchilik va me'yoriy hujjatlar: O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonunlari, Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo'yiladigan talablar to'g'risida nizomi va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlari, hamda “Open bank” aksiyadorlik jamiyatning ustavi va boshqa ichki me'yoriy hujjatlar (keyingi o'rinlarda “qonunchilik va me'yoriy hujjatlar”).

Mazkur ichki qoida qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, Bank tomonidan taqdim etiladigan mahsulot va xizmatlar uchun narxlarni belgilashning umumiy qoidalarini belgilab beradi.

Ushbu ichki qoida ishlab chiqishda qonunchilik texnikasi qoidalariga rioya qilingan.

Mazkur ichki qoida, agar unda boshqa muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, Bankning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan kunning ertasidan kuchga kiradi.

Ushbu ichki qoidaga o'zgartirish va qo'shimchalar Bankning Kuzatuv kengashining qarori asosida kiritiladi.

Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlarida ishlab chiqilishi belgilangan ichki qoidalar, shuningdek ularga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar tijorat banklari tomonidan tasdiqlangandan so'ng 15 (o'n besh) kun ichida Markaziy bankka taqdim etilishi kerak.

“Open bank” aksiyadorlik jamiyatning
Yuridik boshqarmasi boshlig'i
S.I. Salimov

